

Shahrisabz tumani qishloq xo'jaligi va sanoati

Chorshanbiyeva Mahliyo Nuraliyevna

Mirzo Ulug'bek nomidagi O'zMU Geografiya va geoaxborot
tizimlar fakulteti geografiya yo'nalishi talabasi,

Toshkent, O'zbekiston, e-mail: chorshabiyevamahliyo49@gmail.com

Annotatsiya: Mazkur tezisdagi Qashqadaryo viloyatining muhim hududlaridan biri bo'lgan Shahrisabz tumanida qishloq xo'jaligi va sanoat tarmoqlarining shakllanishi, hozirgi holati hamda rivojlanish tendensiyalari tahlil qilinadi. Tadqiqotda hududning tabiiy-iqlim sharoiti, yer-suv resurslari, mehnat salohiyati qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish va sanoat ishlab chiqarish hajmlariga ta'siri yoritilgan. Shuningdek, agro-sanoat integratsiyasi, kichik sanoat zonalari va qayta ishlash korxonalarining hudud iqtisodiyotidagi o'rni ko'rib chiqilgan. Tezis yakunida tuman qishloq xo'jaligi va sanoatini barqaror rivojlantirish bo'yicha ilmiy-amaliy takliflar berilgan.

Kalit so'zlar: Shahrisabz tumani, qishloq xo'jaligi, sanoat, hududiy rivojlanish, agro-sanoat majmuasi, iqtisodiy salohiyat.

Аннотация: В данной диссертации анализируется формирование, текущее состояние и тенденции развития агропромышленного сектора в Шахрисабзском районе, одном из важных регионов Кашкадарьинской области. В исследовании освещается влияние природных и климатических условий региона, земельных и водных ресурсов, трудового потенциала на производство сельскохозяйственной продукции и объемы промышленного производства. Также рассматривается роль агропромышленной интеграции, малых промышленных зон и перерабатывающих предприятий в региональной экономике. В заключение диссертации представлены научно-практические предложения по устойчивому развитию сельского хозяйства и промышленности в регионе.

Ключевые слова: Шахрисабзский район, сельское хозяйство, промышленность, региональное развитие, агропромышленный комплекс, экономический потенциал.

Abstract: This thesis analyzes the formation, current state and development trends of agricultural and industrial sectors in the Shahrisabz district, one of the important regions of the Kashkadarya region. The study highlights the impact of the natural and climatic conditions of the region, land and water resources, labor potential on the production of agricultural products and industrial production volumes. It also examines the role of agro-industrial integration, small industrial zones and processing enterprises in the regional economy. At the end of the thesis, scientific and practical proposals are given for the sustainable development of agriculture and industry in the region.

Keywords: Shahrisabz district, agriculture, industry, regional development, agro-industrial complex, economic potential.

Shahrisabz tumani Qashqadaryo viloyatining eng qadimiy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan hududlaridan biridir. Uning tabiiy sharoiti, unumdor yer resurslari hamda mehnatsevar aholisi tufayli qishloq xo'jaligi va sanoat sohalari tuman iqtisodiyotining asosiy tayanchi hisoblanadi. Bugungi kunda Shahrisabz tumani agrar-sanoat majmuasining muhim bo'g'ini sifatida viloyat hamda respublika iqtisodiy hayotida salmoqli o'rin egallaydi. Tuman iqtisodiyotining katta qismini **qishloq xo'jaligi** tashkil etadi. Aholining ko'pchilik qismi qishloq joylarda yashaydi va mehnatga layoqatli aholining 60 foizdan ortig'i qishloq xo'jaligi sohasida band. So'nggi yillarda yoshlar orasida kichik biznes, hunarmandchilik va sanoat korxonalarida ishlashga qiziqish ortib bormoqda. Bu esa tuman mehnat bozorining tarkibini o'zgartirib, iqtisodiyotning diversifikatsiyasiga zamin yaratmoqda. Tuman hududining katta qismi sug'oriladigan yerlar bo'lib, bu yerlar asosan g'alla, paxta, sabzavot, meva-sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Shahrisabz tumani aholisi asosan dehqonchilik va chorvachilik bilan shug'ullanadi. So'nggi yillarda suv tejovchi texnologiyalar, tomchilatib sug'orish usullari va zamonaviy issiqxonalar barpo etilishi natijasida qishloq xo'jaligi mahsuldorligi ortib bormoqda. Tuman dalalarida g'alla, paxta, beda, sabzi, piyoz, pomidor, bodring, gilos, shaftoli va uzum yetishtiriladi. Ayniqsa, Shahrisabz uzumi o'zining sifati va shirinligi bilan mashhur. Chorvachilikda qoramol, qo'y-echkilar, parrandachilik hamda asalarichilik yo'nalishlari yaxshi rivoj topgan. Ko'plab oilaviy fermer xo'jaliklari go'sht, sut, tuxum va asal ishlab chiqarish orqali mahalliy bozorni ta'minlamoqda[1].

Aksariyat qishloq aholi punktlari bevosita yer bilan chambarchas bog'langan. Yer qishloq ahlining asosiy ishlab chiqarish vositasi, ularni boqadigan zamini hisoblanadi. Biroq yerlardan foydalanishdagi va qishloq xo'jaligi ixtisoslashuvdagi tafovutlar iqlim, rel'yef hamda tabiiy sharoit bilan uzviy bog'langanligi tufayli bir-biridan keskin farq qiladi. Bu esa qishloqlardagi ishlab chiqarish tiplarining ham xi1ma-xilligiga olib keladi. Qishloq joylarda qishloq xo'jaligida bevosita band va ma'lum bir qismi esa qishloq xo'jaligida band bo'lmagan aholi ham yashaydiShu boisdan, qishloq xo'jaligida band bo'lmagan qishloq aholisini uchta guruhga ajratish mumkin:

1) qishloq xo'jaligiga xizmat qiluvchi tarmoqlarda (savdo, xizmat ko'rsatish, maorif, sog'tiqni saqlash va boshq.)band bo'lganlar;

2) shaharga yaqin bo'lgan korxona va muassasalarda ishlovchilar;

3) qishloq joylarda joylashgan sanoat va boshqa korxonalarda banddir. Qishloq aholisining bunday o'ziga xos xususiyati turli davlatlarda bir-biridan tubdan farq qiladi. Jumladan, iqtisodiyotining asosini qishloqxo'jaligi tashkil etadigan mamlakatlarda aholining katta qismi qishloqxo'jaligi bilan bog'langan bo'ladi. Rivojlangan mamlakatlarda esa, aksincha, qishloq joylardagi aholi qishloq xo'jaligi bilan juda kam shug'ullanishadi. Tabiiy sharoit qishloq aholisi punktlaridagi xo'jalik tarmoqlarining ixisoslashuviga hamda shu asosda kichik-kichik ixtisoslashgan qishloqlarning paydo bo'lishida muhim rol o'ynaydi. Masalan, dehqonchilik, qoramolchilik, o'rmon xo'jaligi, tog' -kon va hokazolardir[2].

Tuman xo'jaligi, asosan, qishloq xo'jaligiga ixtisoslashgan. Shahrisabz tumanida 9 qo'shma korxona, kichik korxonalar, 1300 ga yaqin xususiy korxona, 14 shirkat korxonasi, 19 aksiyadorlik jamiyati mavjud. Qishloq xo'jaligining yetakchi tarmog'i paxtachilik. Shuningdek, g'allachilik, chorvachilik, pillachilik ham rivojlangan. Qishloq xo'jaligida sug'oriladigan yerlar 18 ming ga, shu jumladan, 5,8 ming ga yerga paxta, 2,0 ming ga yerga sabzavot va poliz, 2,0 ming ga yerga beda, 2 ming ga yerga kartoshka ekiladi. 3,4 ming ga yer bog'. Tumanda 12 shirkat xo'jaligi, 4 ta xo'jaliklararo korxona, 478 ta fermer xo'jaligi bor (2024). Hisorak suv ombori qurilgan. Tuman shirkat va shaxsiy xo'jaliklarida 92 mingdan ortiq qoramol, 109 mingga yaqin qo'y va echki, 1,5 ming dan ziyod yilqi, 844 ming parranda boqiladi[3].

Shahrisabz tumanida qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish
2024-yil yanvar-dekabr (Shahrisabz tumani hokimiyatidan olingan ma‘lumot bo‘yicha
2024)

	Miqdori
Qishloq, o‘rmon va baliq xo‘jaligida ishlab chiqarilgan (ko‘rsatilgan xizmatlar) hajmi, mlrd.so‘m	2 860,9
2025- yil 1- yanvar holatiga chorva mollari va parrandalar bosh soni, boshda	
Yirik shoxli koramol	92 838
shu jumladan:	
Fermer xo‘jaliklari	7 516
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	83 798
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 524
ulardan sigirlar	37 714
shu jumladan:	
Fermer xo‘jaliklari	3 300
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	33 723
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	691
Qo‘y va echkilar	108 633
shu jumladan:	
Fermer xo‘jaliklari	13 249
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	90 057
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	5 327
Otlar	1 611
shu jumladan:	
Fermer xo‘jaliklari	627
Dehqon va tomorqa xo‘jaliklari	885
Qishloq xo‘jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	99
Parrandalar	843 936
shu jumladan:	
Fermer xo‘jaliklari	103 492

Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	194 044
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	546 400
Ishlab chiqarilgan chorvachilik mahsulotlari	
Go'sht (tirik vaznda), tonna	16 018,3
<i>shu jumladan:</i>	
Fermer xo'jaliklari	298,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	14 708,3
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 011,7
Sut, tonna	106 733,9
<i>shu jumladan:</i>	
Fermer xo'jaliklari	4 545,3
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	100 746,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	1 442,0
Tuxum, ming. dona	85 163,8
<i>shu jumladan:</i>	
Fermer xo'jaliklari	122,7
Dehqon va tomorqa xo'jaliklari	21 402,6
Qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar	63 638,5
Fermer xo'jaliklari tomonidan ishlab chiqarilgan asosiy turdagi qishloq xo'jalik mahsulotlari, tonna	
Boshqoli don	34 547,3
shu jumladan: bug'doy	34 268,3
Kartoshka	2 076,8

Sabzavot	10 761,4
Poliz	1 650,0
Meva va rezavorlar	8 763,8
Uzum	3 943,7
Go'sht, tirik vaznda	298,3
Sut	4 545,3
Tuxum, ming. dona	122,7
Jun, tonna	13,3
Pilla, tonna	201,9

Qishloq xo'jaligi yetakchi tarmog'i – paxtachilik, shuningdek, g'allachilik, chorvachilik, pillachilik, ham rivojlangan. Sug'oriladigan yerlarga paxta, sabzavot va poliz, beda, kartoshka va boshqa ekinlar ekiladi. 480 ga yaqin fermer o'jaligi, 4 xo'jaliklararo korxona bor. Jamoa va xususiy xo'jaliklarda qoramol, qo'y va echki, parranda, yilqi boqiladi. Shahrisabz tumani iqtisodiyotining asosini **dehqonchilik** tashkil etadi. Hududda dehqonchilik asosan sug'oriladigan yerlar hisobiga olib boriladi. Tumandagi Aqsu, Tanxozdaryo, Yakkabog'soy kabi daryolardan suv olinib, Shahrisabz suv ombori orqali dehqonchilikda foydalaniladi[4]. Tuman yer maydonining qariyb 60 foizi qishloq xo'jaligiga ajratilgan bo'lib, shundan katta qismi paxta, g'alla, sabzavot-poliz, va meva ekinlari bilan band. Asosiy ekinlar quyidagilardan iborat:

Paxta yetishtirish — tumanning iqtisodiy hayotida eng muhim tarmoq. "O'zbekiston paxtasi" brendi sifatida eksportga yo'naltiriladigan tola Shahrisabzda yetishtirilgan paxtaning ham hissasini o'z ichiga oladi.

G'allachilik — g'alla hosili ichki iste'molni ta'minlashda muhim o'rin tutadi. Har yili o'rtacha 50–60 ming tonna g'alla yig'ib olinadi.

Sabzavotchilik va polizchilik — tumanda iqlimning iliqqligi tufayli pomidor, bodring, qovun, tarvuz, sabzi va piyoz kabi ekinlar mo'l hosil beradi.

Texnik va dukkakli ekinlar — kungaboqar, soya, no'xat, loviya kabi ekinlar oxirgi yillarda ko'paymoqda. Tuman fermer xo'jaliklari yuqori hosildor navlarni

ekishga e'tibor qaratmoqda. Xususan, "Shahrisabz G'alla Agroklasteri" va "Oqsaroy Paxta" kabi yirik fermer birlashmalari zamonaviy texnologiyalar asosida ishlaydi[37].

Shahrisabz qadimdan **bog'bonlar yurti** sifatida tanilgan. Bu yerning tabiiy-iqlim sharoiti, ayniqsa tog' oldi hududlarida, meva yetishtirish uchun juda qulay. Asosiy yetishtiriladigan mevalar: olma, o'rik, shaftoli, anor, gilos, uzum, olcha va boshqalar. Ayniqsa Shahrisabz uzumi viloyatda mashhur bo'lib, u eksport uchun tayyorlanadi. Tumanda bir necha vino va sharbat ishlab chiqaruvchi korxonalar faoliyat yuritadi, ular meva-sabzavot xomashyosini qayta ishlash orqali sanoat tarmog'ini ham rivojlantirmoqda. So'nggi yillarda yopiq issiqxonalar va intensiv bog'lar barpo etilmoqda. Bu usullar meva va sabzavot yetishtirish mavsumini uzaytirish, hosildorlikni oshirish va eksport imkoniyatlarini kengaytirish imkonini berdi.

Chorvachilik tumanda ikkinchi yirik yo'nalish bo'lib, asosan sut-go'sht yo'nalishidagi qoramolchilik, qo'ychilik, echkichilik, parrandachilik, asalarichilik tarmoqlari rivojlangan.

Qoramolchilik — Shahrisabzda "Qashqadaryo suti" va "Oqsaroy Agro" kabi sut ishlab chiqaruvchi fermer xo'jaliklari faoliyat yuritadi. Sut mahsulotlari nafaqat mahalliy bozorlarda, balki viloyat miqyosida ham sotiladi. Qo'ychilik — "Hisor zotli qo'ylar" yetishtirish keng tarqalgan. Ular go'sht va jun mahsuloti uchun qadrlanadi. Echkichilik — asosan tog'li hududlarda rivojlangan, echki suti va pishlog'i bilan mashhur. Parrandachilik — "Shahrisabz Parranda" MCHJda yiliga o'n minglab tuxum ishlab chiqariladi. Asalarichilik — tog'li hududlarda tabiiy asal ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan, bu tarmoq turizm bilan ham uyg'unlashmoqda. Shuningdek, yem-xashak ekinlari maydoni kengaytirilmoqda, bu esa chorvachilikni barqaror o'sish bilan ta'minlamoqda. So'nggi yillarda Shahrisabz tumanida **agroteknik modernizatsiya** keng joriy etilmoqda[4].

Xulosa: Xulosa qilib aytganda, Shahrisabz tumani Qashqadaryo viloyatining agrar-sanoat rivojlanishida muhim o'rin tutuvchi hududlardan biri hisoblanadi. Tadqiqot natijalari tuman iqtisodiyotining tayanch tarmoqlari bo'lgan qishloq xo'jaligi va sanoatning shakllanishi bevosita tabiiy-iqlim sharoitlari, unumdor yer-suv resurslari hamda mehnat salohiyati bilan uzviy bog'liqligini ko'rsatdi. Hududda sug'oriladigan dehqonchilik, xususan, paxtachilik, g'allachilik, sabzavotchilik va bog'dorchilik

yetakchi o‘rin egallab, chorvachilik tarmoqlari bilan o‘zaro uyg‘un holda rivojlanib bormoqda.

So‘nggi yillarda suv tejoychi texnologiyalar, intensiv bog‘lar, zamonaviy issiqxonalar va agroklastlar faoliyatining kengayishi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari hajmi va sifatining oshishiga xizmat qilmoqda. Shu bilan birga, qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlashga ixtisoslashgan sanoat korxonalari, kichik sanoat zonalari va oilaviy tadbirkorlik subyektlarining rivojlanishi hudud iqtisodiyotining diversifikatsiyasini ta‘minlab, aholi bandligini oshirishga ijobiy ta‘sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillar shuni ko‘rsatadiki, Shahrisabz tumanida agro-sanoat integratsiyasini yanada chuqurlashtirish, suv va yer resurslaridan oqilona foydalanish, qayta ishlash sanoatini kengaytirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy etish barqaror iqtisodiy rivojlanishning muhim omillaridan hisoblanadi. Shu boisdan, hududda qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini kompleks rivojlantirishga qaratilgan ilmiy-amaliy chora-tadbirlarni amalga oshirish tuman iqtisodiy salohiyatini yanada oshirish, aholining turmush darajasini yaxshilash va mintaqaviy raqobatbardoshlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. A.M. Mamatov, S.I. Abdullayev, B.E. Xo‘janqulov “Hisor davlat qo‘riqxonasi – O‘rta Osiyo tog‘ tabiatining andozasi”. Qarshi. “Nasaf” nashriyoti 2010.
2. Bo‘rieva M.R., Tojiev Z.N., Zokirov S.S. Aholi geografiyasi va demografiya asoslari. Mas‘ul muharrir geografiya fanlari doktori, professor Soliev A.S. - Toshkent «Tafakkur» 2011 y. - 160 bet.
3. Shahrisabz tumani hokimiyati statistika ma‘lumotlari 2024 yil.
4. Nazarov M, Murodova D. “Qashqadaryo viloyati geografiyasi” fanidan o‘quv uslubiy majmua. Qarshi – 2021